



MAMLAKATIMIZDA TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGI TAHLILI VA UNI MUSTAHKAMLASH IMKONIYATLARI

ANALYSIS OF THE STABILITY OF THE DEPOSIT BASE OF COMMERCIAL BANKS IN OUR COUNTRY AND OPPORTUNITIES FOR ITS STRENGTHENING

¹Axmedova Dilafro‘z
Elshodovna

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada O‘zbekistonda tijorat banklari depozit bazasi barqarorligini tahlil qilish va uni mustahkamlash imkoniyatlari masalasi ilmiy-tahliliy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy bank tizimida depozitlar bank resurslarining asosiy va barqaror manbai hisoblanishi, shuningdek, kreditlash, likvidlik va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlanadi. Maqolada amaliyot va nazariya jihatlarini uyg‘unlashtirilgan holda, mamlakatimiz tijorat banklari depozit bazasi dinamikasi, tarkibi va barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Xorijiy tajribalar va milliy sharoit o‘rganilib, banklar depozitlarini jalb qilishning samarali usullari, mijozlar segmentatsiyasi, raqamli xizmatlarni joriy etish va moliyaviy savodxonlikni oshirish kabi yo‘nalishlarda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - The article addresses the issue of analyzing the stability of the deposit base of commercial banks in Uzbekistan and the possibilities for its strengthening from a scientific and analytical perspective. It is emphasized that in the modern banking system, deposits are the primary and stable source of bank resources and play a crucial role in ensuring lending, liquidity, and financial stability. The article integrates both theoretical and practical aspects: the dynamics, structure, and stability indicators of the deposit base of the country's commercial banks are analyzed. Foreign experience and national conditions are examined, and practical recommendations are proposed for effective deposit attraction, client segmentation, implementation of digital banking services, and enhancement of financial literacy.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, depozit bazasi, barqarorlik, moliyaviy resurslar, mijozlar segmentatsiyasi, raqamli bank xizmatlari.*
❖ *commercial banks, deposit base, stability, financial resources, client segmentation, digital banking services.*

Kirish.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish maqsadida bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish vazifasi belgilangan [1].

Tijorat banklarining depozit bazasi – bu bankning aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlardan jalb etgan barcha depozitlarining majmuidir. U bankning asosiy, eng barqaror va arzon resurs manbai hisoblanadi. Bankning kredit siyosati, likvidligi, aktivlar sifati, risklarni boshqarishi va umumiy barqarorligi aynan depozit bazasining hajmi, tarkibi va barqarorligiga bog‘liq.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarining depozit bazasi bank resurslarining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, bankning kreditlash hajmi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati, risklarni boshqarish samaradorligi va umumiy moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim omildir. Depozitlarning miqdori, tarkibi va barqarorligi bank faoliyatining strategik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, iqtisodiy islohotlar jarayonida uning ahamiyati bundan ham ortib bormoqda. Shu bois ilmiy adabiyotlarda depozit bazasining mazmuni, uni shakllantirish metodlari va boshqarish tamoyillari keng yoritilgan.

Ko'plab zamonaviy xorijiy olimlarning ta'kidicha, depozit bazasi bankning eng arzon va eng ishonchli moliyaviy resursidir. Ayni paytda depozitlar bankning iqtisodiyotdagi vositachilik funksiyasini amalga oshirishida asosiy asos bo'lib xizmat qiladi.

F. Mishkin o'zining mashhur "The Economics of Money, Banking and Financial Markets" asarida depozitlarni bankning "fundamental majburiyat"i deb e'tirof etadi. Uning fikricha, depozitlar resurslar barqarorligi, likvidlik va kreditlash imkoniyatlarining eng asosiy manbai hisoblanadi [2].

P. Rose "Commercial Bank Management" asarida depozitlarni bank resurs siyosatining markaziy elementi sifatida baholaydi. U depozitlar tarkibining barqarorligi bankning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi [3].

J. Sinkey esa depozitlarni risklar nuqtayi nazaridan tasniflaydi va muddatli depozitlarni eng barqaror resurs manbai sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, ayirboshlanish ehtimoli yuqori bo'lgan talab qilib olinguncha depozitlar bank likvidligi uchun asosiy xavf omili hisoblanadi [4].

G. Gorton o'z tadqiqotlarida "banking trust" tushunchasini ilgari surib, depozitlar o'sishining bosh omili sifatida aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi. Uning fikricha, ishonchni mustahkamlash depozit

bazasining sifatini oshiruvchi strategik mexanizm hisoblanadi [5].

O. Lavrushin ilmiy asarlarida depozitlarni mijozlar bilan bank o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mahsuli sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, deposit bazasi hajmining oshishi bankning moliyaviy vositachilik imkoniyatlarini kengaytiradi [6].

I. Balabanov esa "deposit portfelining diversifikatsiyasi risklarni kamaytiradi" degan nazariyani asoslaydi. Uning fikriga ko'ra, depozitlar tarkibida muddatli, jamg'arma va innovatsion depozitlarning mavjudligi bankning resurs barqarorligini ta'minlaydi [7].

Maslov depozitlarni "strategik resurs" sifatida talqin qiladi va banklar depozit siyosatini shakllantirishda uzoq muddatli barqaror resurslar ustuvor bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [8].

Sh.Q. Alimov "bank omonatlarining mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ta'sirini tahlil qilgan. U omonatlarning shakllanishida banklar va iste'molchilarning hamkorligi, moliyaviy savodxonlikni oshirish va ishonch muammosini hal qilish kerakligini ta'kidlagan" [9].

N.N. Ibragimova o'z tadqiqotlarida "omonatlar va aholi ishonchi orasidagi aloqaga to'xtalib, moliyaviy savodxonlik, sug'urta tizimi va ishonchni oshirish mexanizmlarini tadqiq qilgan. U omonatlar tizimini mustahkamlash va unga bo'lgan ishonchni oshirish uchun davlat va banklardan kutilgan choralar haqidagi takliflarini ishlab chiqqan. omonatlar bo'yicha aholi ishonchini oshirish uchun moliyaviy savodxonlik va sug'urtalash tizimining ahamiyatiga urg'u bergan" [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining depozit bazasi barqarorligi — bu banklar tomonidan aholi va korxonalardan jalb qilingan omonatlar va depozitlarining uzoq muddatli, prognozlanadigan va barqaror saqlanishini anglatadi. Barqaror depozit bazasi bank uchun asosiy moliyaviy resurs manbai bo'lib, kreditlash, likvidlik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Barqaror depozit bazasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: depozitlar mijozlar tomonidan tez-tez chiqarilmaydi, bank ulardan kreditlar berish va investitsiya qilish uchun ishorali muddatda foydalanishi mumkin; depozitlarning chiqish xavfi past, ya'ni likvidlik xavfi minimal; mijozlar bankka ishonchli bo'lib, bank xizmatlaridan doimiy ravishda foydalanadi.

Depozit bazasining barqarorligi mamlakat bank tizimi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, u moliyaviy tizimning umumiy izchilligi va mustahkamligini ta'minlaydi. Barqaror depozit resurslari banklarga iqtisodiy o'zgarishlar, bozor tebranishlari va moliyaviy stress davrlarida o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, kreditlash jarayonining muntazamligini qo'llab-quvvatlab, real sektor korxonalari hamda tadbirkorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, depozit bazasining mustahkamligi mijozlar ishonchini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Aholi va biznes subyektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchi kuchaygani sari, ularning moliyaviy savodxonligi ham yuksalib, moliyaviy muassasalardan foydalanish darajasi ortadi. Bu jarayon bank sektorida sog'lom raqobatni shakllantirib, xizmatlar sifati va qulayligini oshishga olib keladi.

Bundan tashqari, barqaror depozit bazasi milliy bank tizimining likvidligini ta'minlab, kredit portfellarining sifatini yaxshilash va

ularning ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilishini rag'batlantiradi. Natijada, mamlakatda moliyaviy barqarorlik mustahkamlanib, iqtisodiy o'sishning davomiyligi va makroiqtisodiy muvozanatni qo'llab-quvvatlash imkoniyati ortadi.

Shu tariqa, tijorat banklarining depozit bazasi barqarorligi — bank resurslarini uzoq muddatli va samarali boshqarish, kreditlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash va mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

2024-yil davomida Markaziy bank tomonidan bank tizimi faoliyatida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini maqbul darajada bo'lishini ta'minlash hamda tashqi iqtisodiy jarayonlar orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning salbiy ta'sirlarini yumshatish va banklar bardoshligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Bunda, tijorat banklari faoliyati doimiy ravishda turli ssenariylarda stress-testlardan o'tkazilib kelgusida ularning kapitali va likvidligiga bo'lgan xatarlarni kamaytirish choralari ko'rib borildi.

Jalb qilingan depozitlar tarkibida milliy valyutadagi depozitlar ulushi 70,1 foizdan 75 foizgacha oshgan bo'lsa, chet el valyutasidagi depozitlar ulushi 29,9 foizdan 25 foizgacha pasaygan.

Ushbu holat almashuv kursining barqaror shakllanib borayotganligi hamda nisbatan qa'tiy pul-kredit siyosatining yuritilishi hisobiga ijobiy real foiz stavkasi saqlab qolinayotganligi milliy valyutadagi depozitlarning jozibadorligini oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, jismoniy shaxslardan milliy valyutada jalb qilingan muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi 21,8 foizni tashkil etib, jalb etilgan depozitlarning 55 foizi 22 foizgacha, 37 foizi 22-25 foizgacha, qolgan 8 foizi 25 foizdan yuqori stavkalarda jalb etilgan.

1-jadval

Depozitlarning muddatlari bo'yicha taqsimlanishi [11]

Yillar	Jami	Depozitlar qaytarish muddatiga ko'ra							
		Talab qilib olinguncha		6 oygacha		6 oydan 1 yilgacha		1 yildan yuqori	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda
01.01.2024-y.	241 687	85 198	35,3	36 329	15	34 952	14,5	85 209	35
milliy valyutada	169 516	50 827	30	25 909	15	27 209	16	65 571	39
xorijiy valyutada	72 171	34 370	48	10 420	14	7 743	11	19 638	27
01.01.2025-y.	308 692	99 094	32,1	43 980	14,2	46 260	15	119 359	39
milliy valyutada	231 235	62 415	27	34 647	15	39 014	17	95 158	41
xorijiy valyutada	77 458	36 679	47	9 332	12	7 246	9	24 201	31


Tijorat banklari tomonidan hisobot yilida jalb qilingan depozitlar tarkibidagi aholi omonatlari qoldig'i 42 foizga yoki 36 trln. so'mga oshib, 122 trln. so'mga, jumladan, milliy valyutada jalb etilgan omonatlar qoldig'i 54 foizga yoki 31 trln. so'mga oshib, 88 trln. so'mga, jami aholi omonatlaridagi ulushi 66 foizdan 72 foizga yetdi. Jalb qilingan depozitlar qaytarish muddatlari tarkibida bir yilgacha bo'lgan depozitlar ulushi qariyb 29 foiz atrofida 2023-yil darajasida saqlanib qolgan bo'lsa, bir yildan yuqori muddatli depozitlar ulushi 35,3 foizdan 38,7 foizgacha oshgan. Talab qilib olguncha depozitlar ulushida 35,3 foizdan 32,1 foizgacha pasayish kuzatilgan.

Umuman olganda, global inflyatsiya darajasining pasayib borishi fonida ko'plab xorijiy markaziy banklar pul-kredit siyosatlarini asta-sekin yumshatish bosqichiga o'tayotgan bo'lsa-da, xalqaro moliya bozorida tashqi resurslarga bo'lgan talabning yuqori darajada saqlanib qolayotgani foiz stavkalarining pasayish sur'atlarini sezilarli ravishda cheklab turmoqda. Natijada, tashqi moliya bozorlardagi foiz stavkalari kutilganidek tez emas, balki sekin hamda ehtiyotkorlik bilan pasaymoqda. Bu holat global iqtisodiyotdagi noaniqliklar, investorlardagi

xavfga nisbatan ehtiyotkorlik va bozor likvidligi uchun davom etayotgan raqobat bilan ham izohlanadi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida bank kreditlariga bo'lgan yuqori talabni qondirib borishda ichki manbalar bilan birga tashqi manbalarni ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu maqsadda 2024-yilda banklar tomonidan jami 6,3 mlrd. dollarlik (2023-yilga nisbatan +46 foiz), shu jumladan, 2 mlrd. dollarlik bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli xorijiy kreditlar jalb etilgan.

Hisobot yilida 4,6 mlrd. dollarlik xorijiy kreditlar so'ndirilib, (2023-yilga nisbatan +60 foiz) shundan, 2,8 mlrd. dollari (60 foiz) uzoq muddatli kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. Banklarda mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlardan kelib chiqqan holda kreditlash manbalarini shakllantirish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida tashqi kredit resurslari 9,1 foizga (12,3 trln. so'mga oshib, 11,4 mlrd. dollarni tashkil qilgan) oshgan bo'lsa, ichki resurslar – depozitlar qoldig'i 2024-yilda 67 trln. so'm yoki 28 foizga o'sgan holda, ularning jami majburiyatlardagi ulushi ushbu davrda 44 foizdan 47 foizgacha oshgan.




1-rasm. Aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari [11]

Iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarini ta'minlanishi va pul bozoridagi foiz stavkalarning ijobiy real darajada saqlanib qolishi natijasida, 2024-yilning dekabrda aholi depozitlarining foiz stavkasi ularning inflyatsion kutilmalarga nisbatan 11,2 foizlik real darajada shakllandi.

Aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari 2024-yil yanvar-may oylarida o'rtacha 21,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, dekabr oyiga kelib, 22,1 foizgacha yetdi.

Milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha real foiz stavkalari ham 6,3-9,0 foiz atrofida shakllandi.

Mazkur ijobiy real foiz stavkalari milliy valyutadagi depozitlari hajmining sezilarli darajada o'sib borishiga hamda 2024-yil davomida aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari 1,6 barobarga va korporativ muddatli depozitlarni 1,5 barobarga oshishiga xizmat qildi.



2-rasm. Milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalari [11]

Kreditlarga bo'lgan talabning yuqori saqlanib qolishi fonida jismoniy shaxslarning

milliy valyutadagi kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yil yakunida 11 oylik darajasidan

mos ravishda 0,5 foiz bandga oshib 24,9 foiz doirasida shakllandi. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavka esa yil davomida nisbatan barqaror shakllanib, dekabr oyida o'rtacha 22,4 foizni tashkil etdi.

Depozit bazasi barqarorligini ta'minlash tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivoji uchun muhim hisoblanadi. Barqarorlikni ta'minlashda birinchi navbatda depozitlar tarkibini diversifikatsiya qilishga e'tibor qaratish zarur. Bu muddatli va talab qilib olinguncha depozitlar, aholi va korxona omonatlarini muvozanatli shakllantirish orqali barqaror resurslarni ko'paytirish va likvidlik riskini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mijozlar ishonchini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Depozitlarni sug'urtalash tizimi, moliyaviy shaffoflik va xizmatlar sifatini oshirish orqali aholi va biznesning bankka bo'lgan ishonchi ortadi, bu esa depozitlarning uzoq muddatli saqlanishini ta'minlaydi.

Foiz siyosati va moliyaviy rag'batlar ham depozit bazasining barqarorligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Bozor sharoitlariga mos keladigan raqobatbardosh foiz stavkalari va uzoq muddatli depozitlar uchun rag'batlantirish mexanizmlari mijozlarni barqaror omonatlarni tanlashga undaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va xizmatlar orqali depozitlarni jalb qilish qulayligi oshiriladi. Internet- va mobil bank xizmatlari, innovatsion elektron operatsiyalar orqali mijozlar ehtiyojlariga mos keladigan depozit mahsulotlari taqdim etish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish depozit bazasini mustahkamlashda samarali usul hisoblanadi. Xorijiy bank tizimlarida qo'llaniladigan innovatsion mexanizmlar, xizmatlar va mahsulotlarni joriy etish orqali mijozlarni jalb qilish va depozitlar hajmini oshirish mumkin bo'ladi. Shu tariqa, depozit bazasini barqarorlashtirish strategik ahamiyat kasb

etadigan vazifa bo'lib, unga tizimli va kompleks yondashuv orqali banklarning moliyaviy mustahkamligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda tijorat banklari depozit bazasini tahlil qilish natijalari ko'rsatdiki, banklar resurslari asosan aholi va biznes sub'ektlaridan jalb qilingan depozitlarga asoslangan. Barqaror depozit bazasi bankning likvidlik darajasi va moliyaviy barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Tahlil davomida quyidagi asosiy tendensiyalar aniqlandi:

Barqaror depozitlar ulushi eng katta bo'lgani holda, ayrim banklarda talab qilib olinadigan depozitlar va qisqa muddatli omonatlar ulushi yuqori bo'lib, bu likvidlik tahdidini keltirib chiqarishi mumkin.

Depozitlar tarkibidagi nomutanosiblik va ba'zi banklarda aholi jalb qilishi kamligi, resurslarning barqarorligini pasaytiradi.

Mijozlar ishonchini ta'minlashda xizmatlar sifati, innovatsion mahsulotlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta ekanligi aniqlandi.

Shu asosda, mamlakatimizda tijorat banklari depozit bazasi barqarorligini ta'minlash uchun strategik va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi sezildi. Barqaror depozit bazasi nafaqat bank faoliyati, balki umumiy iqtisodiy barqarorlik uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Mamlakatimizda tijorat banklari depozit bazasini barqarorlashtirish va uni mustahkamlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Birinchiidan, banklar aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun turli muddatli va foiz stavkalaridagi depozit turlarini yaratishlari zarur. Bu depozitlar portfelini diversifikatsiya qilish va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Mobil va internet-banking xizmatlari orqali depozitlarni

jalb qilish imkoniyatlari kengayib, xizmatlarning qulayligi va mijozlar ishonchini ta'minlaydi.

Uchinchidan, mijozlar ishonchini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Bu uchun depozitlar sug'urtalanishi, xizmatlar sifatining shaffofligi va monitoring tizimini kuchaytirish zarur.

To'rtinchidan, aholi va kichik biznes sub'ektlari moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida bank xizmatlari va depozitlar haqida targ'ibot va ta'lim loyihalari amalga oshirilishi kerak. Bu mijozlarning bankka ishonchi va depozitlar jalb qilish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Beshinchidan, tijorat banklarida depozitlar tarkibi va uzoq muddatli barqarorligini baholash uchun indikatorlar

tizimini joriy qilish tavsiya etiladi. Bu banklarning moliyaviy barqarorligini monitoring qilish va depozit siyosatini strategik ravishda shakllantirish imkonini beradi.

Oltinchidan, xorijiy bank tizimlari tajribasidan foydalanish va innovativ depozit mahsulotlarini yaratish ham muhimdir. Bu banklarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror depozit bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu takliflar amalga oshirilsa, mamlakatimiz tijorat banklari depozit bazasining barqarorligi va moliyaviy samaradorligi sezilarli darajada oshadi, bu esa bank tizimining umumiy barqarorligi va aholi ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y.
2. Mishkin, F. S. (2019). *The economics of money, banking, and financial markets* (12th ed.). Boston, MA: Pearson.
3. Rose, P. S. (2014). *Commercial bank management* (10th ed.). New York, NY: McGraw-Hill Education.
4. Sinkey, J. F. (2002). *Commercial bank financial management* (6th ed.). Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.
5. Gorton, G. (2010). Slapped in the face by the invisible hand: Banking and trust in the financial crisis. *Journal of Financial Economics*, 97(3), 337-354. <https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2010.05.003>
6. Лаврушин, О. И. *Banking and economic relations*. — М.: Экономика, 2008.
7. Балабанов, И. *Commercial bank management and risk diversification*. — М.: Финансы и статистика, 2010.
8. Маслов, Д. Ю. *Banking operations and strategic resources*. — М.: Банковское издательство, 2005.
9. Alimov Sh.Q., "O'zbekistonda aholi omonatlari: muammo va yechimlar". Toshkent, 2020.
10. Ibragimova N.N., "Omonatlar va aholi ishonchi: zamonaviy yondoshuvlar". Toshkent, 2021.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari - <https://cbu.uz/oz/publications/annual-report/>